BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSQICHIDA ONA TILINI O‘QITISH JARAYONINING DOLZARBLIGI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.

Eshpulatova Jang‘il Eshanqulovna
Termiz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
jangileshpulatova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tilini o‘qitish jarayonining dolzarbligi, muammolari va istiqbollari yoritilgan. Muallif ona tili darslarining bolalarning kreativ fikrlash qobiliyati, nutq madaniyati va yozma savodxonligini shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv metodlardan foydalanish va raqamli vositalar yordamida dars samaradorligini oshirishning yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim sifati, interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogika, nutq madaniyati, savodxonlik, dars samaradorligi, ta’lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются актуальность, проблемы и перспективы обучения родному языку на этапе начального образования. Автор анализирует роль уроков родного языка в формировании у детей навыков креативного мышления, речевой культуры и письменной грамотности. Также изучены пути повышения эффективности занятий с помощью внедрения современных педагогических технологий, использования интерактивных методов и цифровых инструментов.*

Ключевые слова: *родной язык, начальное образование, качество образования, интерактивные методы, современная педагогика, культура речи, грамотность, эффективность урока, образовательные технологии, компетентностный подход.*

Annotation: *This article examines the relevance, problems, and future prospects of teaching the native language at the primary education level. The author analyzes the role of native language lessons in shaping children's creative thinking skills, speech culture, and written literacy. The paper also explores ways to enhance lesson effectiveness by introducing modern pedagogical technologies, using interactive methods, and incorporating digital tools.*

Keywords: *native language, primary education, quality of education, interactive methods, modern pedagogy, speech culture, literacy, lesson effectiveness, educational technologies, competency-based approach.*

KIRISH.

Ona tili har bir insonning o‘z milliy o‘zligini anglash, dunyoqarashini shakllantirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim vositadir. Boshlang‘ich ta’lim esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida ona tilini o‘qitishga yangicha

yondashuvlar talab etilmoqda. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitishning bugungi holati, mavjud muammolari va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM.

Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi” deganda ko‘proq o‘quvchining o‘qish strategiyasini nazarda tutmoq muhim. Matn turiga hikoya, ertak, she’r, maqolni kiritsak, shakli kitob, gazeta, jurnal, telefon va boshqa narsalarni hisoblash mumkin. Demak, o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlari, qiziqishlari, o‘rgangan narsalari muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi. Xalqaro tadqiqotlarda matnni tushunish to‘rtta jarayonga asoslanib baholanadi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma’lumotni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish, uyg‘unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

Ma’lumki, Ona tili fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib va tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi [1, 4-b.].

Ona tili fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

4. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.

5. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, “so‘zni hazm qila olish” imkoniyatlari e’tiborga olinadi.

6. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

7. Yozma nutq bilan bog‘liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish

maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e’tibordan chetda qoladi. “Ona tili darsligida ushbu jihatlarga e’tibor qaratilgan: noto‘liq matnni to‘ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

Mavjud holat va muammolar: Bugungi kunda boshlang‘ich maktablarda ona tili o‘qitishda bir qator muammolar kuzatilmoqda: An’anaviy metodlardan foydalanish: Ko‘plab maktablarda hali ham yod olishga asoslangan, zerikarli an’anaviy metodlar ustunlik qiladi. Bu o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi. Shu bilan birga o`zlashtirish drajasi pasayishiga olib keladi. Ba’zi o‘qituvchilar zamonaviy o‘qitish metodlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishda qiynaladilar.

Zamonaviy ona tili o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv: O‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallashi lozim. Bu, asosan, o‘qish, yozish, tinglash va gapirish malakalarini rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish: Darslarda interaktiv doskalar, elektron resurslar, maxsus mobil ilovalar va ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv (inglizcha: competency-based approach) ta'limda nazariy bilimlarni shunchaki yodlashdan ko'ra, o'quvchining amaliy ko'nikma va malakalarni, ya'ni kompetensiyalarni egallashiga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuvda o'quvchi ma'lum bir vaziyatda bilganlarini qanday qo'llashni o'rganadi.

Nutqiy malakalarni shakllantirishdagi bo‘shliqlar: O‘qitish asosan yozma savodxonlikka qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning og‘zaki nutq, fikrni erkin bayon etish va muloqot qilish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlantirilmaydi.

Integratsiyaning yetishmasligi: Ona tili darslari boshqa fanlar bilan yetarli darajada bog‘lanmagan. Vaholanki, ona tili boshqa fanlarni o‘zlashtirish uchun kalit hisoblanadi.

Afzalliklari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Hayotiy va kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan malakalar shakllanadi. O‘quvchilarning darslarga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqishi ortadi. Ta’lim sifati oshadi va u mehnat bozori talablariga mos keladi.

XULOSA.

Boshlang‘ich ta’limda ona tilini o‘qitish faqat grammatika va imlo qoidalarini yodlashdan iborat bo‘lmasligi kerak. Bu darslar o‘quvchilar uchun tilning go‘zalligini anglatadigan, ularning shaxsiyatini rivojlantiradigan, muloqot madaniyatini shakllantiradigan va hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatadigan jarayonga aylanishi lozim. Zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali bu sohada sezilarli yutuqlarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida” gi Nizom 3-bob 12 bandi

2. Eshpulatova Jang‘il Eshonqulovna. (2023). Methodology of development of creative skills of primary class students. International Journal of Pedagogics, 3(03), 25–31.

3. Zhangil Eshpulatova. (2023). Criteria for development of creative thinking ability of primary class students. World Bulletin of Social Sciences, 27, 1-5.

4. Kompetentli yondoshilish asosida talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish. (2025). EduVision: Pedagogika va ta'lim sohasidagi innovatsiyalar jurnali, 1 (2), 164-169.

5. Eshpo‘latova, J. E. (2024). Muammoli ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarda kreativ faoliyatni rivojlantirish. Inter education & global study, (3 (1)), 139-146.

6. Eshpulatova Jang‘il Eshonqulovna, (2023). Boşhlang‘ich sif o‘quvchilarining ijodiy mahoratlarini rivojlantirish metodikasi. Xalqaro Pedagogika jurnali, 3 (03), 25–31. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05

8. Eshanqulovna, E. L. J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish shakl va metodlari.

9. Eshanqulovna, E. L. J. I., & Shopoatovna, T. L. B. (2024, February). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish. in international conference on modern development of pedagogy and linguistics (Vol. 1, No. 2, pp. 68.